

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI
DO‘STLIK TUMANI**



**AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDA
KITOBXONLIKKA QIZIQTIRISH BO‘YICHA
KITOBXONLIK TADBIRLARINI
TASHKIL ETISHGA DOIR
METODIK TAVSIYALAR**

Do‘stlik tumani 2026-yil


KIRISH

Adabiyot insonning ma'naviy dunyosini shakllantirish va ahloqiy qiyofasini belgilashda eng samarali ta'sir ko'rsatuvchi san'at turidir. Aholi va yoshlar o'rtasida milliy va jahon adabiyotlari, ilmiy-ommabop qo'llanmalarni tizimli targ'ib qilish orqali ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan mehr va muhabbat uyg'otish hamda axborot olish madaniyatini shakllantirish biz kutubxonachilarning oliy maqsadimizdir. Kitobxonlikni targ'ib qilish orqali insonlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularda mustaqil va tanqidiy fikrlash, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ma'naviy tahdidlarga nisbatan sog'lom immunitetni rivojlantirishga munosib hissa qo'shish talab qilinadi. Shu maqsadda mazkur metodik tavsiyalar Axborot-kutubxona markazlarida, kutubxona muassasalarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, aholi, ayniqsa bolalar va yoshlar o'rtasida mutolaa qilishga bo'lgan qiziqishni oshirish hamda kitobxonlik tadbirlarini samarali tashkil etish maqsadida ishlab chiqildi.

UMUMIY QOIDALAR

Ushbu metodik tavsiyalar Axborot-kutubxona markazlarida, kutubxona muassasalari faoliyatida kitobxonlik tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Metodik tavsiyalar kutubxona xodimlari, bibliograflar va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun tavsiya etiladi.



METODIK TAVSIYALARNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Maqsadi:

- Kitob va mutolaaga bo'lgan qiziqishni oshirish;
- Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish;
- Kutubxona muassasalar faoliyatining samaradorligini oshirish.

Vazifalari:

- Turli yosh toifalari uchun kitobxonlik tadbirlarini tashkil etish;
- Milliy va jahon adabiyotlarini targ'ib qilish;
- Kitob fondidan unumli foydalanish;
- Kitobxonlarda axborot madaniyatini shakllantirish;
- Zamonaviy va innovatsion usullardan foydalanish.



KITOBXONLIK TADBIRLARINING ASOSIY SHAKLLARI

AKM va KMda quyidagi tadbir shakllarini tashkil etish tavsiya etiladi:

- **Kitob ko'rgazmalari;**

Dolzarb masalalarga va muhim unutilmas sanalarga bag'ishlangan kitob ko'rgazmalaridan kutubxonalarda keng foydalaniladi. Kitob ko'rgazmasi mazmuniga ko'ra-*universal, mavzuli*; vaqtiga ko'ra – *doimiy, vaqtinchalik, uzoq muddatga* mo'ljallangan; xarakteriga ko'ra-axborot, targ'ibot shaklida bo'ladi.

Xususiyati: ko'rgazmalilik, ommaviylik, ta'sirchanlik, estetik zavq berish, hujjatni o'z qo'liga olish va yaqindan tanishib chiqish imkonining kengligi, hujjatni bevosita reklama qilish.

Ahamiyati: hujjatga qiziqish uyg'otadi, mavzuga qiziqish uyg'otadi, hujjatni targ'ib qiladi, estetik ruhda tarbiyalaydi, kitobxonning fikr doirasini kengaytiradi. **Kamchiligi:** hujjatlar yo'qolishi, mavzuga oid hujjatlar- ning barchasini qamrab olishi mumkin emas.

Mavzuli kitob ko'rgazmalari



Bu ko'rgazmalarning vazifasi bir mavzu bo'yicha eng qimmatli adabiyotlarni ko'rsatish, targ'ib qilish, kitobxonga mavzuni chuqur va tizimli o'rganishda yordam berishdir. Mavzuli kitob ko'rgazmalari mazmunan quyidagicha bo'ladi.

1. Davrning dolzarb masalalariga oid kitob ko'rgazmalari. Ularning mavzusini siyosiy-iqtisodiy, fan-texnika va madaniyat masalalari tashkil etadi. Masalan: "O'zbekiston allomalar yurti".

2. Muhim sanalarga bag'ishlangan kitob ko'rgazmalari. Yozuvchi, shoirlar, rassom, bastakorlar, davlat arboblari yubileylari, muhim sanalar munosabati bilan tashkil etiladi. Masalan: "Samarqand shahri – 2750 yoshda"

3. Mashhur kishilarning hayoti va ijodiga bag'ishlangan kitob ko'rgazmalari. Bu ko'rgazmalar birinchidan, yozuvchi, shoirning hayot yo'lini yoritib bersa, ikkinchidan kitobxonni uning asarlari, u haqidagi nashrlar bilan tanishtiradi. Bunda biografik ocherklar, xotiralar, asarlar to'plamlari, yozuvchi yoki shoirning ijodi to'g'risidagi tanqidiy asarlar qo'yiladi. Hujjatlar – foto- rasmlar, portretlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. "G'azal mulkingning sultoni", "Alisher Navoiy mutafakkir shoir", "Kamoliddin Behzod XXI asrda", "Abdulla Avloniy-ma'rifatparvar shoir" nomlarida ko'rgazmalar tashkil etish mumkin.

4. Biror bir janrga bag'ishlangan kitob ko'rgazmalari. Ushbu ko'rgazmaga biron-bir adabiy janrga oid adabiyotlar joylashtiriladi. Bu ko'rgazma kitobxonlarga adabiyotning ayrim janrlarini targ'ib qiladi. Mazkur janrlarda yozilgan eng sara asarlarga qiziqish uyg'otadi. Bunday ko'rgazmalarni "O'zbek tarixiy romanlari", "Nazm gulshani" va boshqa nomlarda tashkil etish mumkin.

Yangi adabiyotlar ko'rgazmasi



Mazkur ko'rgazma yangi olingan kitoblar haqida kitobxonlarga tizimli ravishda axborot berib borishga mo'ljallangan. Kutubxonalarda siyosiy, tabiiy-ilmiy, ishlab chiqarish texnikasi, badiiy adabiyot kabi har bir katta bo'limga vitrinada alohida tokcha ajratiladi. Sitata va rasmlar qo'llanilmaydi. Ko'rgazmani "Yangiliklar", "Yangi kelgan kitoblar" yoki "Diqqat! Yangi kitoblar" kabi sarlavhalar bilan ochish mumkin. Yangi adabiyotlar ko'rgazmasi ma'lum bir kunda: yirik kutubxonalarda haftada bir marta, qolganlarida oyda bir marotaba tashkil etiladi.

Kitob ko'rgazmasini tayyorlash metodikasi

Katalog va kartotekalar, ro'yxatlar, bibliografik ko'rsatkichlarga nisbatan kitob ko'rgazmalari adabiyotlar targ'ibotining juda keng qo'llanadigan shaklidir. Bunday adabiyotni bevosita ko'rsatish har qanday kitobxon diqqatini o'ziga tortadi. Ko'rgazmaning samarasi, ta'siri uni tayyorlash sifatiga bog'liq. Ko'rgazmani tayyorlash jarayoni mavzuni tanlash bilan bolanadi. Kutubxonalarning vazifasi davrning dolzarb masalalari, dunyo va mamlakat hayoti, fan-texnika, madaniyat yutuqlari, ijtimoiy-siyosiy voqealar, muhim sanalar va yubileylarga oid adabiyotlarni o'z vaqtida targ'ib qilib borishdan iborat. Ko'pgina ko'rgazmalar boshqa ommaviy tadbirlarga qo'shimcha sifatida tashkil qilinadi. Kitob ko'rgazmasini tashkil etishga kirisha turib avval muhim mavzuni tanlab olamiz. Shundan keyin kitob fondiga murojaat etamiz. Bu yerda u yoki bu adabiyotning yo'qligi yoki yetarli emasligi kabi qiyinchiliklar bilan to'qnash kelish mumkin. Shuning uchun avvalo fondni mavzu bo'yicha tahlil qilib, shundan keyingina ko'rgazma tayyorlanadi. Kitobxon uchun ko'rgazmaning qimmatini unda ko'rsatilayotgan adabiyotlar bilan belgilanadi. Adabiyotlar avvalo g'oyaviy, badiiy jihatdan pishiq, yangi, kitobxon talabiga mos bo'lishi kerak. Tanlangan adabiyotlar chuqur o'rganilib, tizimlashtiriladi. Shundan keyin ko'rgazmani shakllantirish bosqichiga o'tiladi. Ko'rgazma kitobxonga estetik ta'sir etadigan, uning diqqatini kitobga qaratadigan, kerakli yo'nalishga sola oladigan darajada shakllantirilishi zarur. Ko'rgazmani shakllantirishda bir necha jihatlarni hisobga olish kerak.

1. Kitob vitrinalari. Ko'rgazmani shakllantirishda asosiy element hisoblanadi. Shuning uchun tayyorgarlik ko'rish davomida oldindan vitrina yoki stendning ko'rinishini bilish kerak. Ko'rgazma uchun 3-5 ta kitob vitrinasi olinadi. Har bir tokchasida 6-8 tadan adabiyot joylashtirilishi kerak.

Kitob vitrinalarini P shaklida, yoysimon, to‘lqinsimon, burchakli, shaxmatsimon joylashtirish mumkin.

2. Adabiyotlarni joylashtirish. Adabiyotlarni joylashtirishda ularning mantiqiy xususiyati hisobga olinadi. Adabiyotlar mavzuni yoritib bera olish darajasida joylashtirilishi kerak. Ularni joylashtirishda masalani tizimli yoritish tartibi qo‘llaniladi. Tanlangan rasmlar adabiyot mazmuniga mos ravishda kitob bilan yonma-on joylashtiriladi. Adabiyotlarni joylashtirishda muqovaning rangiga ham e‘tibor berish kerak. Ayrim sahifalardagi portretlar, rasmlar, rangli tasvirlarni ochib qo‘yish mumkin. Kitoblar ustma-ust qo‘yilmaydi. Jurnallardan, to‘plamlardan, asarlar to‘plamining ayrim tomlaridan olingan maqolalar ikki usulda ko‘rsatiladi. Kitob muqovasiga muallif nomi, maqolaning sarlavhasi va betlari ko‘rsatilgan kartochka qistirib qo‘yiladi yoki jurnalning o‘sha maqola boshlangan varag‘i ochib qo‘yiladi va kartochkada jurnal nomi, nashr yili, asarlar to‘plamining nomi, tom soni hamda betlari ko‘rsatiladi. Ko‘rgazmada gazetani ko‘rsatish bir oz murakkab. Chunki uning hajmi katta, shuning uchun gazeta buklab qo‘yiladi, bu esa uni ko‘rgazmadan olib ko‘rishda qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun gazeta maqolalarining kseronushalarini qo‘yish mumkin.

3. Sarlavhaning ahamiyati. Kitobxon diqqatini tezda jalb etadigan element ko‘rgazmaning sarlavhasidir. U ko‘rgazmaga ma‘naviy urg‘u beradi. Sarlavha sodda, qisqa, kitobxon qabul qilishi uchun oson bo‘lishi kerak.

Sarlavha o‘lchami va unga tanlangan rang ko‘rgazmaning mazmuniga mos bo‘lishi shart.

4. Sitata, matn va illyustratsiyalardan foydalanish. Ko‘rgazma mavzusiga mos tanlangan sitata, qisqa matn va turli illyustratsiyalar ko‘rgazmaning ta‘sirchanligini oshiradi. Ko‘rgazma nomiga va alohida har bir bo‘lim uchun sitata tanlanadi. Ularni yozishda mazmunga mos holda rang tanlanadi. Shrift belgilab olinadi. Lekin faqat ikki-uchta rang tanlanishi kerak, undan ortig‘i kitobxonni charchatadi.

Bundan tashqari, har bir rang o‘z xususiyatiga ega ekanligini yodda tutmoq lozim. Bu ko‘proq ularning qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Sof ranglarga qizil, ko‘k, sariq ranglar kiradi.

Quyidagi ranglar o‘zaro uyg‘unlik hosil qiladi: qora rang–sariq, olovrang, tilla va kumushrang bilan; qizil, oq-ko‘k; oq rang – ko‘k, qizil va yashil rangda. O‘zaro nouyg‘un ranglar: sariq qizil rangda, ko‘k sariq rangda.

5. Kartoteka. Ko‘rgazmaga hajmi uncha katta bo‘lmagan kartoteka ham tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Unda ko‘rgazmadan joy olmagan adabiyotlarning (mavzu doirasida) tanlab tavsiflangan kartochkalari joylashtiriladi.

6. Ko‘rgazma bilan ishlash. Ko‘rgazmadagi adabiyotlarni o‘qish uchun berish, ko‘rgazmaning o‘zini targ‘ib qilish bo‘yicha ish olib boriladi. Mavzuga oid berilgan kitoblarni miqdoriga qarab ham ko‘rgazmaning muvaffaqiyatini bilish mumkin. Shuning uchun ko‘rgazmada berilgan har bir kitob alohida hisobga olib boriladi.

O‘tkazmoqchi bo‘lingan yoki o‘tkazilgan ko‘rgazma tadbirlarining tahlili, har qanday kutubxona uchun muhim yo‘nalish hisoblangan ushbu faoliyatni mukammallashtirib, tadbirni kitobxonlarning talab va qiziqishlariga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Bibliografik sharhlar (obzor)

Bibliografik sharh – foydalanuvchiga axborotni yetkazish, muayan hujjatlarni targ‘ibot va reklama qilishning keng tarqalgan va yetarli darajada samarali hisoblangan vositasidir. Sharh mustaqil ish shakli hisoblanadi, biroq u tez-tez kitoblar ko‘rgazmasi oldida, adabiy kecha, kitoblar muhokamasi, viktorinalarning boshida yoki oxirida o‘tkaziladi.

Bibliografik sharhlar quyidagilarga bo‘linadi:

- maqsadi va kitobxonlik doirasiga ko‘ra: axborot beruvchi va tavsiyaviy;
- mazmuniga ko‘ra: mavzuli, shaxslarga bag‘ishlangan, yangi adabiyotlar va bibliografik qo‘llanmalar sharhi;
- qamrab olingan nashr turlariga ko‘ra: kitoblar, jurnallar, adabiyotlarning maxsus turlari va boshqa hujjatlarga;
- shakliga ko‘ra: og‘zaki, yozma (bosma), yorqin va aralashma xarakterda.

Kutubxonachi shuni doimo yodda tutishi kerakki, sharh – bu hujjat annotatsiyalarining yig‘indisi emas, balki u haqida bog‘langan va izchil hikoyadir. Qoidaga ko‘ra sharh uch qism: kirish, asosiy qism va xotimadan iborat bo‘ladi.

Avvalo foydalanuvchilarning talab va qiziqishlarini hisobga olgan holda mavzu tanlanadi, so‘ngra sharhning maqsadi va kitobxonlik doirasi aniqlashtiriladi. Kutubxonachi adabiyotlarni shunday ajratib olishi kerakki, ular mavzuni to‘liq aks ettira olsin. Adabiyotlar turli manbalarga murojaat qilish asosida tanlanadi. Ular orasida: o‘xshash mavzudagi bibliografik qo‘llanmalar, kataloglar, kartotekalar, kitob va maqolalarning adabiyot ro‘yxati va boshqalar.

Sharh uchun aniqlangan adabiyotlarni yaxshilab ko‘zdan kechirish, taqrizlar bilan tanishish lozim. Sharh uchun, mazmun va bayon etilishi xususiyatiga ko‘ra mavzuga, sharhning maqsadiga hamda sharh mo‘ljallangan auditoriya tarkibiga ko‘proq mos bo‘lgan nashrlarni tanlash talab etiladi.

Tanlab olingan nashrlar uchun bibliografik yozuv tuziladi. Annotatsiyada nashrning mazmuni bayon etilib, sharhning mavzusini to‘liqroq ochib beradigan jihatlariga urg‘u beriladi.

Adabiyotlarni guruhlarga ajratish ma‘lum bir g‘oya va bayon etilishning izchilligiga bo‘ysundirilishi kerak. Bunda variantlar: oddiydan murakkabga, induktiv, deduktiv va davriy bo‘lishi mumkin.

Shundan so‘ng sharhning keng ko‘lamdagi rejasi tuziladi, asarlarning ketma-ketligi ko‘rsatiladi va o‘qib beriladigan parchalar tanlab olinadi. Sharh bog‘langan va izchil bayon sifatida asarlar orasida ma‘lum tutash nuqtalar bo‘lishligini, biridan ikkinchisiga mulohaza va mantiq asosida o‘tishligini talab qiladi. Sharh matnini yaxshilab tahrir qilish, qog‘ozdan o‘qib bermaslik uchun yodda saqlash kerak.

Kirish qismida sharh mavzusiga ta‘rif beriladi, uning ahamiyati, adabiyotlarni tanlash prinsipi, guruhlarga ajratish tushuntiriladi. Asosiy qismda asarlarning o‘zi haqida gapiriladi. Har bir asar haqida ma‘lumotlar (muallif familiyasi; chiqish

ma‘lumotlari; maqsadi va qaysi kitobxonlarga mo‘ljallanganligi; ma‘lumot apparatining mavjudligi, asar mazmunini ochib beradigan annotatsiyasi; asarga taqrizlar agar ular bo‘lsa) beriladi. Sharhning xulosa qismida barcha aytib o‘tilganlarga yakuniy xulosa chiqariladi, qo‘shimcha tarzda sharh mavzusining mazmuniga yaqin bo‘lgan nashr nomlari aytib o‘tiladi hamda shu mavzudagi bibliografik qo‘llanmalar tavsiya etiladi.

Sharhning turli xillari mavjuddir. Kitobxonlar e‘tiborini doimo yangi adabiyotlar o‘ziga tortadi (kitoblar, jurnallar, turli mavzudagi maxsus nashrlar). Yangi adabiyotlar sharhida hujjatlarni sohaviy va mavzu xususiyatiga ko‘ra guruhlarga ajratish kerak (birinchi o‘ringa muhimroq hisoblangan adabiyotni chiqargan holda).

Ko‘pgina kutubxonalar foydalanuvchilar uchun qiziqarli hamda foydali bo‘lgan yangi chiqqan jurnallarning sharhini o‘tkazadilar. Bunda, jurnaldan joy olgan muhimroq bo‘lgan asarlar hamda jurnallar strukturasi, ruknlariga e‘tibor qaratiladi.

Shaxslarga bag'ishlangan sharhlar, ko'pincha yubiley va muhim sanalar munosabati bilan o'tkaziladi. Ushbu sharhlarda shaxsning hayoti va faoliyati qamrab olinadi va hayotining alohida davri yoritiladi.

Kitobxonlar konferensiyasi

Aholi o'rtasida kitob targ'ib qilishning keng tarqalgan usullaridan biri kitobxonlar konferensiyasidir (lot. conferentia–biror joyga to'playman). Kitobxonlar konferensiyasi adabiyotlar targ'ibotining kompleks shaklidir. Shuning uchun unda targ'ibotning yakka va ommaviy shakllari – og'zaki, ko'rgazmali shakllari hamda matbuotdan foydalaniladi.

Kitobxonlar konferensiyasi mazmuni va maqsadiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

- bir asar bo'yicha o'tkaziladigan konferensiyalar;
- bir mavzuga oid tematik konferensiyalar;
- bir janrga oid kitobxonlar konferensiyasi;
- bir muallif ijodiga bag'ishlangan konferensiyalar;
- jurnallar bo'yicha o'tkaziladigan konferensiyalar.

Xususiyati: dolzarblik, kitobxonlar faolligini oshirish, hujjatni targ'ib qilish, kitobxonda yangi qiziqishni shakllantirish, kitob reklamasini tashkil etish.

Ahamiyati: kitobni targ'ib etadi, reklama faoliyatini shakllantiradi, jonli muhokamani shakllantiradi, kitobxon–kitob–kutubxonachi–muallif munosabatini shakllantiradi, kitobxonda nutq madaniyatini o'stiradi, kitobxonda fikrlash, tahlil qilish, fikrni boshqalarga o'tkazish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Kamchiligi: ba'zan rasmiy chiqishlarga yo'l qo'yiladi, yaxshi tashkil etilmaganda zerikarli bo'lishi mumkin. Adabiyot nusxalarining kamligi ko'zga tashlanadi.

Kitob taqdimoti (yangi jurnal, gazeta)

Taqdimot kitobxonlarni yangi chiqqan nashr bilan tanishtiradi, uning afzalliklarini namoyish etadi. Taqdimotda nashriyot xodimlari, muallif, rassom va shu nashrga taalluqli bo'lgan boshqa shaxslar (jumladan, asarning prototiplari, kitobda tasvirlangan voqealarning ishtirokchilari) ishtirok etadilar. Kitob taqdimotida taqdimotning mavzusiga doir kitob ko'rgazmasi tashkil etiladi, asar muallifining dastxati tushirilgan nashrning sotuvi hamda tegishli davriy nashrga obuna tashkil etiladi.

Viktorinalar

Viktorinalar – savol-javob o'yinlari badiiy asarlarni targ'ib qilishning eng qiziqarli shakli bo'lib, undan kutubxonalar, yoshlar bilan ish olib boruvchi muassasalar foydalanadilar.

Savol-javob o'yinlari, ayniqsa maktab va bolalar kutubxonalari faoliyatida keng qo'llaniladi. Bunday viktorinalar o'rta maktab, o'rta maxsus bilim yurtlarining o'quv dasturiga bog'liq holda tashkil etiladi. Ulardan ko'zlangan maqsad yoshlarning bilim saviyasini oshirish, mustahkamlash, tanlangan mavzuga qiziqish uyg'otishdan iborat.

Viktorinalar mashhur yozuvchi va shoirlarning, san'atkor va olimlarning yubileylari, muhim voqea va sanalar munosabati bilan tashkil qilinadi.

Viktorinalar alohida bir shaxs – yozuvchi yoki shoirning hayoti va ijodi bo'yicha yoki faqat bir asar bo'yicha ham o'tkazilishi mumkin.

Viktorinalar qiziqarli, shu bilan birga juda murakkab tadbir hisoblanadi. Shuning uchun uni o'tkazish alohida tayyorgarlikni, katta bilimni talab qiladi. Uni tashkil etgan va olib borayotgan shaxs shu mavzu bo'yicha atroflicha bilimga ega bo'lishi, mavzuga oid barcha qo'shimcha adabiyotlar – spravochnik, ensiklopediya, lug'atlar bilan tanish bo'lishi kerak.

Viktorina uchun 10-15 savol tanlanib, 30-40 daqiqaga mo'ljallanadi. Uni tayyorlashda kitobxonlarning qiziqishi, bilim saviyasi e'tiborga olinadi.



Viktorinani tayyorlash va o'tkazish metodikasi

Viktorinalar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Bir muallif ijodiga bag'ishlangan savol-javob o'yinlari;
2. Bir asarga bag'ishlangan savol-javob o'yinlari;
3. Mavzuli viktorinalar;
4. Teatrlashtirilgan viktorinalar.

Viktorinalar mustaqil tarzda ham, boshqa kompleks tadbirlarga yordamchi tadbir sifatida ham qo'llaniladi. Masalan: kitobxonlar konferensiyasi, badiiy-tematik kecha- lar hamda maktablarda turli mushoiralarni o'tkazishda qo'llash mumkin.

Viktorinani tayyorlash uchun avval mavzu tanlanadi. Mavzuni tanlash uchun tadbirning maqsadi, kitobxonlar guruhi, ularning qiziqishi, o'qish maqsadi va bilim saviyasini aniqlab olish, kunning dolzarb masalalarini hisobga olish zarur. Agar savol-javob o'yinlari maktab o'quvchilari orasida olib boriladigan bo'lsa, u maktab dasturi hamda maktabdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining mavzusiga bog'lanishi zarur. Bu o'quvchilarning o'quv dasturi asosida yana ham kengroq bilim olishlarini ta'minlaydi, ularning mustaqil bilim olishlariga yordam beradi, o'quvchilarda o'qish ko'nikmasini, adabiyot tanlash, fikr-mulohaza yuritish ko'nikmasini tarbiyalaydi.

Viktorina badiiy adabiyotga qiziqishni yana ham oshiradi, kitobxonning estetik didini shakllantiradi, o'qilganni yodda saqlab qolishga o'rgatadi.

Viktorinani tayyorlashning keyingi bosqichi mavzu bo'yicha savollar tuzishdan iborat. Bu jarayon ham ma'suliyatlidir. Savollarning sodda, lo'nda, tushunarli bo'lishiga erishish lozim. Buning uchun qo'shimcha materiallardan, kundalik matbuot asarlaridan foydalanish kerak. Tuzilgan savollar mazmuniga ko'ra tizimlashtiriladi.

Viktorinani tayyorlash jarayonida kitobxonlar uchun avvaldan tkaziladigan tadbir, mavzu va savollar yo'nalishi, foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati haqida ma'lumot beriladi. Tadbirda ishtirok etuvchi kitobxonlar bilan alohida ish olib boriladi, ular uchun suhbatlar tashkil etiladi, mavzuga oid ko'rgazma tashkil qilinadi, bu viktorinaning samarasini oshirishni ta'minlaydi.

Viktorinani olib boruvchi tashkilotchi alohida tayyorgarlik ko'radi. Boshqaruvchi vazifasini mutaxassis kitobxon bajarishi mumkin. Boshqaruvchi savollarga berilishi mumkin bo'lgan javoblarni tayyorlab qo'yadi. Uning vazifasi auditoriya bilan doimo bog'liqlikda bo'lish, kitobxonlarning so'zlarini, javoblarini e'tibor bilan tinglab borish, javoblarning tez va to'g'ri berilayotganini belgilab borishdan iborat. Boshqaruvchi zarur bo'lsa, asarlardan parcha o'qib berishga, illyustratsiyalarni namoyish qilishga tayyorgarlik ko'radi.

Agar teatrlashtirilgan viktorina bo'lsa, tayyorgarlik ko'rish jarayonida faol kitobxonlar ishtirokida asar qahramonlarining "chiqish"larini, ular uchun kostumlarni tayyorlash, mavzu mazmuniga mos stereo tasma, CD, DVD disklarni va boshqa texnika vositalarini tayyorlab qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Viktorina qisqacha kirish so'zi bilan ochiladi. Unda tanlangan mavzuga xarakteristika, savollar yo'nalishi, ularga javob berish tartibi haqida gapiriladi. Keyin asosiy savol-javob qismiga o'tiladi. Uni jonli va qiziqarli olib borish boshqaruvchining mahoratiga bog'liq. Savollarga berilayotgan javoblar hay'at a'zolari tomonidan hisobga olib boriladi.

Hay'at a'zolari tarkibiga mutaxassislar, faol kitobxonlar, jamoat tashkilotlarining vakillari kiritilishi mumkin.

So'nggi yakunlovchi qismda javoblarga munosabat bildiriladi, g'oliblarga sovg'alar topshiriladi. Mavzu mazmuniga mos qanday adabiyotlar o'qish mumkinligi aytib o'tiladi.

Tadbir boshqa barcha ommaviy tadbirlar kabi rasmiylashtiriladi. Unda tadbir nomi, undagi savollar va ularga berilgan javoblar, taqdirlanganlar, qancha kitobxon qatnashganligi, hay'at a'zolari tarkibi ishning ta'siri, kitobxonlarning tadbir haqidagi fikr-mulohazalari ko'rsatiladi. Tadbirda, muallifning ishtirok etishi uning samarasini oshiradi.

Davra suhbat

Ushbu tadbirni o'tkazish uchun tayyorgarlik ishlari 1oy ilgari boshlanadi. Avvalo kutubxonada e'lon va taklifnoma yoziladi. Quyida ularning namunaviy shakllarini keltiramiz.

E'lon

Hurmatli kitobxonlar!

Sizlarni 200_ yil _____ soat _____ da kutubxonamizda Mavlono Jaloliddin Rumiyning tavallud kuniga bag'ishlab o'tkaziladigan "Oriflar sultoni" deb nomlangan davra suhbatiga taklif etamiz.

Taklifnoma

Hurmatli _____

Sizni 200_ yil _____ soat _____ da kutubxonamizda o'tkaziladigan "Oriflar sultoni" deb nomlangan davra suhbatiga taklif etamiz.

Mehmonlar (mutaxassislar) va ishtirokchilarga taklifnomalar yuboriladi. Davra suhbat uchun joy tanlanadi va bezatiladi. Mavzuga oid adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Adabiyotlar ko'rgazmasidagi asarlar yuzasidan obzor o'tkazish ham mumkin.

Tadbirni boshlovchi kirish so'zi bilan ochadi va tashrif buyurgan mutaxassislar bilan tanishtiradi hamda so'z uchun biriga navbat beradi. Mutaxassisning chiqishi yakunlangach, boshlovchi kitobxonlarning ma'ruza yuzasidan notiqqa savollari bor yo'qligi bilan qiziqadi, savollar bo'lsa mutaxassisning javobi tinglanadi. Shu tarzda barcha taklif etilgan mutaxassislar tinglanadi. Davra suhbat so'ngida boshlovchi tadbirni yakuniy so'z bilan tugatadi.

She'riyat kechasi

Shoir va yozuvchilarning yubileylari yoki muhim voqealar munosabati bilan, kitobxonlarni estetik ruhda tarbiyalash, adabiyotlarga qiziqish uyg'otish, uni chuqur o'rganishda yordam berish maqsadida o'tkaziladigan she'riyat kechalari muhim ahamiyatga ega bo'lgan ommaviy tadbirlardan hisoblanadi.

She'riyat kechasining mavzusi rang-barangdir: "O'zbek mumtoz she'riyatida gul va yor madhi", "Navoiy lirikasi", "Ogahiy lirikasi", "Zulfiya – she'riyat malikasi", "Baxt va shodlik kuychisi" (Hamid Olimjon), "Xalqning xalqchil shoiri" (Muhammad Yusuf) kabilar.

She'riyat kechalari she'riy asar o'qish madaniyatini tarbiyalaydi, kitobxonning badiiy estetik didini shakllantiradi, estetik zavq beradi. She'riyat kechasi adabiy, tematik kechalarning bir turi bo'lib, uni tayyorlash va o'tkazish ham shu tadbirlar metodikasiga o'xshaydi.

She'riyat kechasining maroqli, qiziqarli, jonli tarzda o'tishi tayyorgarlik ko'rish jarayoniga, kecha tashkilotchilarining mahoratiga, ijodkorligiga bog'liq.

Kechani tayyorlash va o'tkazish uchun komissiya tuziladi hamda uning reja va dasturi ishlab chiqiladi.

She'riyat kechasining kirish qismida mutaxassis kitobxon (adabiyotshunos) shoirning hayoti va ijodi haqida gapiradi yoki shoirning o'zi so'zlab berishi mumkin.

Kechada she'riy asarlarni o'qib beruvchilar oldindan puxta tayyorgarlik ko'rishlari lozim. Ular ifodali, hammaga tushunarli, qiziqarli hamda ta'sirli qilib o'qish san'atini egallagan bo'lishlari kerak.

Bir kitobga bag'ishlangan konferensiyalar



O'zbek va g'arb adabiyotini targ'ib qilishda bu konferensiyaning ahamiyati kattadir. Hayotiy muammolarni real aks ettirgan, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, sevgi va muhabbat, xalqlar do'stligi mavzusida yaratilgan asarlar bo'yicha o'tkaziladigan kitobxonlar konferensiyalari muhim ahamiyatga ega. Tarixiy asarlar tarig'iboti hamda mumtoz shoirlarimiz ijodiga bag'ishlangan konferensiyalar- ning o'tkazilishi esa madaniy merosimizni chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

Konferensiya uchun ommalashgan adabiyotlarga tanlab olinmaydi, balki kitobxonlarning qaysi adabiyotlarga (o'zbek yoki jahon adabiyoti) qaysi janrdagi, (nazm, detektiv, sarguzasht, hajviya va boshqa) nashrlarga qiziqishlari ham hisobga olinib, kitoblar tanlanadi. Konferensiya qatnashchilarining bilim darajasini ham hisobga olish zarur.

Badiiy adabiyotning nasr janri bo'yicha konferensiya o'tkazmoqchi bo'lsak, oldin belgilangan mavzuni chuqur o'rganib, keyin kitobxonga yetkazmoq zarur.

Bir kitobga bag'ishlangan konferensiyalar o'tkazilishi davomida kitobxonlarga asar yuzasidan muhokama uchun 4-5 savol o'rta tashlanadi.

Tematik konferensiyalar

Tematik konferensiyaning tayyorlash va o'tkazish dolzarb mavzuni tanlashdan boshlanadi.

Buning uchun ko'pgina adabiyotlarni qamrab oladigan mavzu tanlanadi. Masalan:

"She'riyatimizda yurtimiz madhi", "Shoirlar tilida Navro'z", "Olam go'zalligi ayolda mujassam".

"Alisher Navoiy obrazi badiiy adabiyotda" nomli konferensiya uchun Oybekning "Navoiy" romani, "Alisherning yoshligi" qissasi, Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" dramasi, Barot Boyqobilovning "Shukuhli karvon" she'riy romanlarini olish mumkin. Tematik konferensiyalar bir mavzuga oid adabiyotlarni targ'ib qilishda hamda shu mavzuga kitobxonlar qiziqishini orttirishda muhim ahamiyatga ega.

Bir janrdagi kitoblarga oid konferensiyalar



Ko'pgina kutubxonalarda badiiy adabiyotning bir janriga oid – “Yoshlar she'riyati”, “Ilmiy-fantastik asarlar”, Detektiv asarlar, “Mening sevimli ertaklarim” kabi mavzularda konferensiyalar o'tkaziladi, Bunday konferensiyalarning maqsadi biror bir adabiy janrga qiziqishni orttirish, shu janrga oid adabiyotlarni targ'ib qilishdan iborat. Konferensiyalar mavzusini davrlar, ayrim xalqlar, mamlakatlar bo'yicha ham olish mumkin. Masalan: 20-asr o'zbek adabiyoti, “Mustaqillik yillaridagi adabiyot”, “Jahon adabiyoti durdonalari” va hakazo.

Bir muallif ijodiga bag'ishlangan konferensiyalar

Eng yaxshi mualliflarning asarlarini targ'ib qilish maqsadida faqat bir muallifning asarlari yuzasidan konferensiya tashkil etiladi. Masalan, “Abdulla Qahhor –mohir hikoyanavis”, “O'zbek ayoli taqdiri” (Abdulla Qahhor asarlari misolida), “Nazmda sevgi va muhabbat”, “Do'stlik taronasi” (Zulfiya, A.Oripov, H.Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf she'riyati misolida), “Haydar Muhammad – dramaturg” va boshqa turli mavzularni olish mumkin.

Agar muallif kitobxonlarga yaxshi tanish bo'lsa, uning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish shart emas. Kitobxonlar orasida ma'lum bo'lmagan mualliflarning hayoti bilan tanishtirib, yozuvchining uslubi, boshqa adiblardan farqli tomonlarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Muallif ishtirokidagi konferensiyalar

Ko'pgina kutubxonalar, yozuvchi va shoirlar ishtirokida konferensiya o'tkazish imkoniyatiga ega.

Mualliflar hamkorligidagi konferensiyaning asosiy maqsadi asarga to'g'ri tanqidiy baho berishdan iboratdir. Asar muallifiga konferensiyaning boshlanishida va oxirida so'z beriladi.

Bu konferensiyaning ahamiyati shundaki, kitobxonlar bilan muallif bevosita asar haqida fikr almashadilar, mulohaza yuritadilar.

Jurnallar bo'yicha o'tkaziladigan konferensiyalar

Kutubxonalarda qiziqarli adabiy-badiiy, ijtimoiy-siyosiy jurnallar (“Sharq yulduzi”, “Fan va turmush”, “Guliston”, “Yoshlik”, “Saodat”, “Sanam”) bo'yicha konferensiyalar tashkil etish mumkin. Jurnallar bo'yicha o'tkaziladigan konferensiyalarning maqsadi kitobxonlarning jurnalning bir yillik mazmunini muhokama qilishlari, tanqidiy baho berishlari, jurnalning xususiyati, strukturasi, yo'nalishi haqida fikr-mulohazalarini bildirishlarini tashkil etishdan iborat.

Konferensiyaga jurnal xodimlari taklif etiladi. Ular jurnalning mazmuni, tayyorlash jarayoni va boshqa jihatlar haqida to'xtalib o'tadilar.

Konferensiyaning tayyorlash va o'tkazish metodikasi.

Kitobxonlar konferensiyasi kitob va jurnallar muhokamasiga asoslangan tadbir bo'lib, kitobxonlarning faolligiga asoslanadi.

Uni tayyorlash va o'tkazish qoidasi. Uni tayyorlash uchun 1 oy vaqt ajratiladi.

Konferensiyaning tayyorlash va o'tkazish guruhi tayinlanadi. Unga kutubxona rahbari, mutaxassislar, faol kitobxonlar kiritiladi.

1.Asar tanlab olinadi. Bunda kunning dolzarb masalalari, muhim voqea va sanalar, yubileylar, shaxslarning yubileylari, asar yubileyi hisobga olinadi;

2. Mavzu tanlanadi. Bunda kitobxonlar qiziqishi, talab va ehtiyojlari, asarning mazmuni, unda ko'tarilgan asosiy masalalar hisobga olinadi;

3. Mavzuni yorituvchi bir yoki bir necha asar tanlanadi. Bunda asar nashrining xususiyatlari, poligrafik jihatlar, kutubxonada mavjud nusxalari hisobga olinadi;

4. Konferensiya tayyorlash va o'tkazish rejasi ishlab chiqiladi. Unda mavzu bo'yicha tanlangan kitob nusxasini ko'paytirish, kitob ko'rgazmasi, bibliografik obzor, so'zga chiquvchi kitobxonlarni aniqlash, ular bilan yakka tartibda ish olib borish, ularni so'zga chiqish uchun tayyorlash, plakat tayyorlash, suhbatlar o'tkazish, OAVlarida, kutubxona ichida bu haqda dastlabki e'lon berish, muhokama qilinadigan masalalarni aniqlash, boshqaruvchini tayyorlash, ssenariy tuzish kabi jarayonlar aks etadi. Tayyorgarlik jarayoni tugagandan so'ng 2-chi e'lon beriladi: unda o'tkazish joyi, vaqti aniqlanadi.

5. O'tkazish joyini tayyorlash. O'tkazish joyi ko'rgazmalar, plakatlari, turli fikrlar yozilgan matnlar bilan bezatiladi.

6. O'tkazish. Konferensiya kitobxonlarning erkin fikrlashi asosida o'tkazilishi lozim. Buning uchun norasmiy muhitni tashkil etish kerak bo'ladi. Bu boshqaruvchining tashkilotchiligiga, mahoratiga, notiqlik qobiliyatiga bog'liq. So'zga chiquvchilar rasman e'lon qilinmasligi zarur. Boshqaruvchi har bir masalaga, har bir so'zga chiquvchiga o'z munosabatini bildirib, ularni bir-biriga bog'lab borsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun boshqaruvchi 1 oy mobaynida mavzu atrofida ko'plab ma'lumotlar bilan tanishishga ulgurishi, so'zga chiquvchilar bilan alohida ishlashi zarur. So'zga chiquvchilar uchun so'z matni avvaldan yozib berilmaydi va u o'qib berilmaydi. Konferensiyaning borishi haqida bayonnoma yozib boriladi.

Ba'zi kutubxonalar faoliyatida kitobxonlar konferensiyasi adabiy kecha kabi uyushtiriladi bunga ijobiy qarash mumkin emas. Quyida ushbu ikki tadbirning farqli tomonlarini ko'rsatib o'tamiz.

Konferensiyaning adabiy kechadan farqi

1. Tayyorgarlik vaqtida konferensiya uchun 1 oy, adabiy kecha uchun 15 kun vaqt beriladi.

2. Konferensiyada asosiy mas'uliyat kitobxonalarda, kechada tashkilotchilarda bo'ladi.

3. Konferensiyada muhokama qilinadi, kechada ma'ruza qilinadi. Ma'ruza mavzuni mukammal biladigan mutaxassis tomonidan bajariladi.

4. Muhokamada badiiy qism bo'lmaydi, kechada bo'ladi.

5. Muhokama asosan bir masala yoki bir asar, bir qahramon atrofida bo'lsa, kecha ko'proq mavzuga bag'ishlanadi.

6. Muhokama kitobxonalarda so'z boyligini oshirishga, notiqlik mahoratini tarbiyalashga, o'z fikrini bayon qilish, boshqalarga tushuntira olish, singdira olishga qaratiladi, kecha ularning umumiy dam olish vaqtini tashkil etadi, estetik didini shakllantiradi.

7. Kechadagi badiiy qismni qo'shiqlar, raqslar, kuylar, sahna ko'rinishlari, monolog, she'r, asardan parcha o'qishni bajarish uchun boshqa madaniy, ma'naviyat markazlari, milliy markazlar, teatr san'ati vakillari hamkorlik qiladi.

Boshqaruvchiga talablar:

1. Notiqlik mahorati
2. Bilimdonlik
3. So'z boyligiga ega bo'lish
4. Erkin fikrlay olish
5. Muloqotga tez kirisha olish
6. Vaziyatni boshqara olish
7. Sahnada o'zini tuta bilish
8. Muomala madaniyatiga ega bo'lish
9. Savodxonlik (yozma va og'zaki)

10. Odamlar bilan ishlay olish
11. Auditoriyani boshqara olish
12. Shiddatlilik
13. Hozirjavoblik
14. Ravon, chiroyli soʻzlash
15. Dunyoqarashining kengligi

Unda uchraydigan kamchiliklar:

1. Oʻta uyatchanlik
2. Tortinchoqlik
3. Soʻzning kamligi
4. Fikrning torligi
5. Muomalaning pastligi
6. Notiqlik mahoratining kamligi
7. Auditoriya bilan ishlay olmaslik
8. Sustligi va boshq.

Tadbirni oʻtkazish bosqichi

- Tadbirni ochish;
- Ishtirokchilarni faol jalb etish;
- Savol-javob va munozaralar tashkil etish;
- Multimedia vositalaridan foydalanish;
- Faol kitobxonlarni ragʻbatlantirish.

Yakuniy bosqich

- Tadbir yakunlarini tahlil qilish;
- Ishtirokchilar fikrlarini oʻrganish;
- Hisobot tayyorlash;
- Kelgusidagi tadbirlar boʻyicha takliflar ishlab chiqish.

KITOBXONLIKKA QIZIQTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

- Onlayn va oflayn kitob klublari;
- QR-kodlar orqali kitob tavsifi;
- Ijtimoiy tarmoqlarda kitob targʻiboti;
- Elektron va audio kitoblardan foydalanish;
- Viktorinlar va intellektual oʻyinlar.

Onlayn tadbirni tashkil etish va oʻtkazish tartibi Onlayn tadbirlarni tashkil etish va tayyorlash uchun puxta rejalashtirish kerak. 1. Tayyorgarlik bosqichi: • mavzuni aniqlash, maqsadlarni belgilash; • tadbir rejasi va mazmunini belgilab, ish rejasini tuzish. • adabiyotlarni tahlil qilish va tanlash; • onlayn tadbir formatini aniqlash (vab-seminar, onlayn mas ter-klass, chaqiriq, onlayn aksiya, onlayn flesh-mob, onlayn tan lov, virtual koʻrgazma va boshqalar); • senariyni, reglamentni (onlayn musobaqa, onlayn marafon), dasturni (vab-seminar) ishlab chiqish; • ishtirokchilarni aniqlash (taqdimotchilar, hakamlar hayʼati va boshqalar); • topshiriqlarni tayyorlash, shartlarni, qoidalarni tushuntirish; • tashkiliy masalalarni hal qilish.

2. Tuzatish bosqichi: • uskunalar va texnik vositalarni tayyorlash va sinovdan o'tka zish; • internet-platformani tanlash. • tayyorgarlik, senariylarni tuzatish, suratga olish, sifatli mon taj qilish; • tadbirlar translyatsiyasi vaqti; • tomoshabinlarni, mehmonlarni taklif qilish (plakat, e'lon, dastur jadvali); • foydalanuvchilarga nashrlarni izlash uchun qulay bo'lishi uchun tematik sarlavhalar, noyob xeshteglar yaratish.

3. Asosiy bosqich: • saytni bezatish, uskunalar, texnik vositalarni o'rnatish (agar u onlayn translyatsiya bo'lsa). • onlayn tadbir o'tkazish (o'z vaqtida Internetga ulana olma gan ishtirokchilar tadbirni keyinroq ko'rishlari uchun tadbirni yo zib olish). • tadbirni tahlil qilish (introspektiv), hamkasblar, mehmonlar bilan mumkin bo'lgan munozara. • zarur hujjatlarni tayyorlash (tadbir pasporti, ishtirokchilar ro'yxati, hakamlar hay'ati bayonoti (onlayn tanlov), veb-sahi faning skrinshoti, ma'lumot hisoboti). Onlayn aksiyalar, onlayn f lesh-moblar, onlayn chaqiriqlar, onlayn tanlovlar va virtual ko'rgazmalar pozitsiyasida, onlayn tadbirning o'tkazilish davri ko'rsatilishi kerak. Onlayn tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda, tadbir mavzusi va shaklining dolzarbligini hisobga olish muhimdir.

YOSH TOIFALARI BILAN ISHLASH

Bolalar uchun:

- Ertak o'qish soatlari;
- Rasmlı kitoblar ko'rgazmalari;
- Sahnashtirilgan tadbirlar.

Yoshlar uchun:

- Kitob klublari;
- Munozaralar;
- Zamonaviy adabiyotlar taqdimoti.

Kattalar uchun:

- Ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar;
- Tarixiy va huquqiy adabiyotlar sharhi;
- Davra suhbatlari.

6. XULOSA

Mazkur metodik tavsiyalar Do'stlik tuman Axborot-kutubxona markazida kitobxonlik tadbirlarini tizimli tashkil etish, kitobxonlar sonini oshirish va mutolaa madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kutubxonalar millatning ma'naviy xazinasini saqllovchi hamda tarqatuvchi, kelgusi avlodlarga yetkazish kabi muhim ishni bajaruvchi ziyo maskanidir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar.

Axborot-kutubxona muassasalarida onlayn tadbirlarni o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalar [Matn]:
axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislari uchun metodik
qo'llanma/tuzuvchi:S.Kamilova,M.Xoliqova,M.Rustamova.-Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2022.-32b.

Кутубхоначига ёрдам : дайжест / Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси ; тузувчи
М. Камилова ; муҳарир Д. Мансуров; масъул муҳаррир У. Тешабаева - Тошкент : Алишер Навоий
номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2019. - 64 б.

Таълим тизимидаги ахборот-кутубхона жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва
бошқариш/Тузувчилар:Д.А.Ғаниева,Р.И.Ратнер.-Тошкент:Янги аср авлоди, 2013. 380 б.

Tuzuvchi: M.A.Raximova

Lavozimi: Do'stlik tuman AKM mutaxassisi

Sana:«17»yanvar. 2026-yil.

MUNDARIJA

Kirish soʻz.....	1
Umumiy qoidalar.....	2
Kitobxonlik tadbirlarining asosiy shakllari.....	3
Kitobxonlikka qiziqtirishning innovatsion usullari.....	13
Yosh toifalari bilan ishlash.....	15

